

BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA FANIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Esanbayeva Diyora Djuravoy qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti 3-kurs talabasi.

Annotasiya : *Ushbu maqola o'quvchilarni darsdan so'ng bo'sh vaqtlarni samaraliy, mazmunli, kreativ fikrlashga undashga harkat qilishi yoritilgan.*

Kalit so'zi: *To'garak, mashg'ulot, kreativ fikrlash, ijodiy yondashuv, amaliyot, tajribalar, sayohatlar, metodlar.*

KIRISH

Talim jarayonida o'qitishning tajribada sinovlardan o'tgan shakl va usullari boyitilib, zarurat bo'lganda, yangilanib amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu boradagi davlat siyosati ham uzluksiz ta'lim vositasida manaviy – axloqiy jihatdan tarbiyalangan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar nazarda tutadi. Uning nechog'li to'g'ri amalga oshirilishi ko'p jihatdan boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng muhim bo'g'inidir. "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomda ta'kidlanganidek: "Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini-o'zi nazorat qilish o'quvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta'minlashga davlat etilgan.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi – kichik yoshdagi o'rta o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir. Sinfdan tashqari o'qish dasturining mazmuniga ko'ra ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'lim ajratiladi: 1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan. O'quvchilarga ko'rsatma beriladi. 2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi. Sinfdan tashqari o'qish va qiroat xonlik saboqlari 1-sinfda haftada 1 marta saboq o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil o'quvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish

qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti harakatini kuzatish, ijobiy tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, Ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlar, qadriyatlari, o'tmishi, insonlarning orzu-istaklari bilan tanishtiriladi. Ularda bilimga havas uyg'otadi. «Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993-yilda tasdiqlangan. Sinf dan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan xonalarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi vaklga aylanishi kerak. Bunda sinf dan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Sinf dan tashqari ishlarning ta'limiy ahamiyati – o'quvchilarga qo'shimcha bilim, malaka va konikmalar berish. Tarbiyaviy ahamiyati – o'quvchilarning ijodiy faoliyat ko'rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham kop qirralidir. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. O'quvchilarning sinf dan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qoyish.

3. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini korish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va mamuriy. Boshlang'ich sinflarni sinf dan tashqari ishlarini tashkil etishni matematika darslari misolida ko'rib chiqamiz. Matematikadan sinf dan tashqari ishlar deyilganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik prinsipiga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi. O'z mazmuni bo'yicha u davlat dasturi bilan cheklanmagan. Ammo matematik material o'quvchilarning bilimlari va malakalariga mos ravishda bo'lishi kerak. Sinf dan tashqari mashg'ulot ixtiyoriylik prinstipi asosida quriladi. Darslar 45 minutga rejalashtirilgani holda sinf dan tashqari mashg'ulotlar mazmuniga va o'tkazilish formalariga qarab 10-12 minutga ham, 1 soatga ham mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Sinf dan tashqari ishlar shakl va turlarining ko'p xilligiga qarab mazmunining turli tumanligi bilan

xarakterlanadi. Maktab amaliyotida matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ushbu turlari uchraydi: matematik o'n minutliklar, soatliklar va qiziqarli matematika kechalari, matematika to'garaklari, ertaliklari, viktorinalar, konkurslar, olimpiyadalar. Shuningdek, sinfdan tashqari ishga matematikadan gazeta chiqarish, matematika burchaklarini rasmiylashtirishlar ham kiradi. Oldin 1-sinfda sinfdan tashqari ishlar qanday tashkil qilinishi va o'tkazilishini qarab chiqamiz. Bu sinfdan sistemali ishning asosini matematik o'n minutliklar tashkil qiladi. Odatda, o'n minutliklar haftasiga bir marta butun sinf bilan o'tkaziladi. O'n minutliklardagi mashg'ulotlar sinf chegarasidan tashqariga chiqishi juda muhimdir. Topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matematik topshiriqlarga o'xshash bo'lmasligi kerak: topshiriqlarning mazmunlari bolalarga tushunarli qiyinlik darajalari bolalarga mos bo'lishi kerak: javoblar tez topilishi kerak, agar hisoblashlar zarur bo'lsa, ular faqat og'zaki bajarilishi kerak. Qiziqarli matematika soati darsdan keyin sinfning hamma o'quvchilarin bilan o'tkaziladi. 1-sinfda bu mashg'ulotlar epizodik ravishda o'tkaziladi. 2-3- sinflarda sistemali ravishda (ammo oyiga 1-2 martadan ko'pmas) o'tkaziladi, chunki ularni o'tkazishga ko'p vaqt talab qilinadi. Mashg'ulotning davomiyligi 1-sinfda 20-25 minut, 2-sinfda 25-35 minut 3-sinfda 35-40 minut, 4-sinfda 40-45minut. Mashg'ulot o'tkazish uchun har hil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, masalalar tuzishga doir masalalar, qiziqarli kvadratlar, rebuslar, topishmoqlar va boshqalar material bo'lib hizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich sinf matematika darslarida sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning bilimlari, va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirishga, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakligini oshirishga, matematikaga qiziqishini orttirishga, qobilyatli, layoqatli, bolalarni topish, talabchanlik va irodani tarbiyalashga, mehnatga muhabbatni, mustaqillikni, uyushqoqlikni, va jamoatchilikni tarbiyalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Matnazarova K.O "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" darslik Toshkent 2014
2. Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – T.: O'qituvchi, 1994, – 112 b.
3. Mirqosimov M. "Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari". T.: 1996 y. 15.
4. Abduhodirov A.A va boshq. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". Iste'dod jamg'armasi, 2008, - 45 b 5. Jo'rayev A. "Tarbiyaviy darslar o'tish". – T.: O'qituvchi.